

MUSTAQILLIKNING ILK YILLARIDA BUXORO TARIXIY-ME'MORIY OBIDALARINING TA'MIRLANISHI VA ULARNING TURIZM HAMDA XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI

Anotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda me'moriy-madaniy merosni asrash va uni turizmni rivojlantirish jarayoniga jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki siyosiy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi, tarixiy obidalarni ta'mirlashga doir davlat va jamoatchilik tashabbuslari, Buxoro tarixiy markazining UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi kabi omillar mamlakatda turizm rivojlanishining institutsional va huquqiy asoslarini shakllantirishdagi muhim bosqich sifatida baholanadi. Shuningdek, mahalliy aholi ishtirokining kuchayishi, xalqaro delegatsiyalar tashriflari va madaniy merosning "madaniy diplomatiya" vositasiga aylanishi O'zbekistonning tarixiy obidalar orqali milliy o'zligini tiklash va xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash jarayonida tutgan ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: mustaqillik yillari, tarixiy obidalar, "O'zbekturizm", UNESCO, delegatsiyalar, madaniy diplomatiya.

РЕСТАВРАЦИЯ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ИХ РОЛЬ В ТУРИЗМЕ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СВЯЗЯХ

Аннотация. В данной статье анализируются первые политические, социальные и организационные меры, осуществлённые в Узбекистане в первые годы независимости по сохранению архитектурно-культурного наследия и вовлечению его в процесс развития туризма. В исследовании рассматриваются такие факторы, как создание национальной компании «Ўзбектуризм», государственные и общественные инициативы по реставрации исторических памятников, включение исторического центра Бухары в Список всемирного наследия ЮНЕСКО, которые оцениваются как важные этапы формирования институциональной и правовой базы развития туризма в стране. Также раскрывается значение усиления участия местного населения, визитов международных делегаций и превращения культурного наследия в инструмент «культурной дипломатии», что сыграло важную роль в процессе укрепления национальной идентичности и позиции Узбекистана на международной арене через его исторические памятники.

Ключевые слова: годы независимости, исторические памятники, «Ўзбектуризм», ЮНЕСКО, делегации, культурная дипломатия.

RESTORATION OF THE HISTORICAL AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE AND THEIR ROLE IN TOURISM AND INTERNATIONAL RELATIONS

Abstract. This article analyzes the initial political, social, and organizational measures implemented in Uzbekistan during the early years of independence to preserve architectural and cultural heritage and involve it in the development of tourism. The study examines factors such as the establishment of the national company "O'zbekturizm," state and public initiatives for the restoration of historical monuments, and the inclusion of the historical center of Bukhara in the UNESCO World Heritage List, which are assessed as important stages in forming the institutional and legal foundations of tourism development in the country. It also highlights the growing participation of local communities, visits of international delegations, and the transformation of

cultural heritage into a tool of "cultural diplomacy," revealing its significance in strengthening Uzbekistan's national identity and its position in the international arena through historical monuments.

Keywords: years of independence, historical monuments, "O'zbekturizm," UNESCO, delegations, cultural diplomacy.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yurtimizda me'moriy obidalarining ta'miroti va ularning turizmni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon O'zbekistonda madaniy merosni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirishning ilk bosqichi bo'ldi. Mustaqillikdan so'ng milliy o'zlikni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va xalqaro maydonda o'z o'rnini belgilash jarayonida me'moriy obidalar strategik resurs sifatida qaralgan.

Bu fikrning tasdig'i o'laroq, 1992-yildayoq O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining "O'zbekturizm milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi. Jumladan, farmonda: "O'zbekturizm milliy kompaniyasi O'zbekiston hududida turizm sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirishni ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh idora deb hisoblansin" deb qayd etildi[1]. Shu tariqa turizm sohasida respublikaning yagona siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini vujudga keltirish asosiy vazifalar sifatida belgilab olindi. "O'zbekturizm"ning tashkil etilishi O'zbekistonda turizmni markazlashtirilgan holda boshqarish, turistik infratuzilmani yaratish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan institutsional asosni yaratdi.

Natija va muhokamalar. Me'moriy obidalar ta'miri va ularning holati 1990-yillarning boshlaridayoq kun tartibidagi masalalardan biri hisoblangan. Bu jarayon milliy merosni tiklash hamda turizm va xalqaro aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1992-yil Buxoroda bo'lib o'tgan madaniyat xodimlari Kasaba uyushmalari Respublika Markaziy Qo'mitasi ko'chma yig'ilishidan ham bu masala o'rin olgan edi: "... Buxoro shahar hokimi o'rinbosari M.A.G'ulomov xuddi shu fikr mulohazalarni davom ettirib, viloyat markazidagi tarixiy obidalarini ta'mirlashning hozirgi ahvolini tanqid qildi va bu masalalarni tezroq hal etish uchun jumhuriyat yuqori tashkilotlaridan iqtisodiy yordam so'rash taklifini o'rta tashladi"[2].

Shu bilan bir qatorda me'moriy obidalarining taqdiriga mahalliy aholi ham befarq bo'lmay bu borada ham moddiy ham amaliy yordam ko'rsatdilar. "Buxoroni asraylik" mavzusidagi uzluksiz radiomarafonda 400 ming so'mdan ortiq pul to'plandi. Bu mablag' Toqi telpakfurushon gumbazi, Rasta, Labi Hovuz yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash uchun sarflandi. Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi mehnat jamoasi qadimiy "Sarrafon" hammomini ta'mirlash xarajatlarini to'la to'kis o'z zimmasiga olishdek xayrli tashabbus bilan chiqdi. Bunday qutlug' ishlarni albatta qo'llab-quvvatlash kerak. Eski shahar hududidagi bozor rastasini qayta tiklash va ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bir guruh ustalar, shahar aholisi, Ark devorini ta'mirlash uchun shaxsiy hissa qo'shish istagini bildirdilar..."[3]. Mahalliy aholining bunday faolligi madaniy merosni asrashda jamiyatning bevosita ishtiroki kuchayganini ko'rsatadi.

1993-yilda "Buxoro tarixiy markazi" ning UNESCO ning Butun jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi yurtimiz tarixiy merosini dunyo hamjamiyatiga tanitish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan bir qatorda xalqaro grantlar, restavratsiya loyihalari, ilmiy tadqiqotlar va turizm oqimining ortishiga olib keldi.

Jumladan, 1994-yilda Toshkentda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashabbusi bilan va BMT, UNESCO hamda Butunjahon sayyohlik tashkiloti ko'magida xalqaro konferensiya o'tkazildi. "...O'tgan shanba kuni ana shu seminarni o'tkazishga doir masalalarni muhokama qilish uchun Buxoroga Birlashgan Millatlar Tashkiloti eksperti Jaslin Damiji xonim va BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakili Dono Abdurazzoqova tashrif buyurishdi. Ularni viloyat hokimi o'rinbosari A.V.Xalilov qabul qildi. Jaslin Damiji xonim Toshkentda xalqaro konferensiya munosabati bilan BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasida an'anaviy xalq hunarmandchiligi asarlari ko'rgazmasi ochilishini ma'lum qildi va unda buxorolik ustalarining ishtirok etish imkoniyatlari, umuman, amaliy san'at rivoji bilan qiziqdi. Ayni paytda BMT vakili konferensiyada

ko'plab xorijiy sayyohlik firmalar vakillarining qatnashishi Buxoroda chet el sayyohlarini jalb qilishda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi"[4].

Tarixiy obidalar nafaqat turizm va madaniy rivojlanish, balki mamlakatning tashqi siyosiy manfaatlariga ham xizmat qiluvchi muhim resurs hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosati doirasida Buxoro qadamjolari chet el delegatsiyalari uchun rasmiy tashrif markazlariga aylangan. Mustaqillikning dastlabki yillarida Hindiston tashqi ishlar vazirining va Izmir shahri delegatsiyalarining, shu bilan bir qatorda, Turkiya va Eron prezidentlarining Buxoroga tashriflari buning tasdig'idir.

"Respublikamizga do'stona tashrif buyurgan Hindiston tashqi ishlar vaziri janob Bxatiya 11-oktabr(1992-yil) kuni Samarqanddan Buxoroga keldi. Hindistonlik mehmonlar Buxoroning tarixiy-me'morchilik obidalarini, shaharning yangi mavzellarini tomosha qildilar..."[5].

"O'zbekistonda mehmonda bo'lib turgan Turkiya Respublikasi Prezidenti Turg'ut O'zol mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov hamrohligida 6-aprel(1993-yil) kuni Buxoroga keldi. Ikki qardosh davlat rahbarlari O'zbekiston va Turkiya davlat bayroqlari hamda turfa qutlov lavhalari bilan bezatilgan Buxoroi Sharif tayyoragohida o'zbekona mehmonnavozlik bilan kutib olindi..."[6].

"Mamlakatimizda rasmiy va do'stona tashrif bilan mehmon bo'lib turgan Eron Islom Jumhuriyati Prezidenti Akbar Hoshimiy Rafsanjoni, uning rafiqasi Hojiya xonim Iffat Hoshimiy Rafsanjoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida 19-oktabr(1993-yil) ertalab Buxoroga keldi... Qadimiy Buxorodagi osori atiqalar – Labihovuz majmui, Masjidi Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Ulug'bek madrasasi, Minorai Kalon, Mir Arab madrasasi Eron Islom Jumhuriyatidan kelgan mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi..."[7]. Bu tashriflar Buxoroning tashqi siyosiy maydondagi "madaniy diplomatiya" markaziga aylanganini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida, Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekistonda me'moriy-madaniy merosni asrash, ta'mirlash va uning turizmni rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi, degan xulosaga kelish o'rinlidir. Bu davrda qabul qilingan qaror va dasturlar — xususan, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi — mamlakatda turizmni markazlashgan holda boshqarish va infratuzilmani shakllantirishning mustahkam institutsional asosini yaratdi.

1990-yillar boshidagi ta'mirlash ishlari faqat davlat doirasida emas, balki mahalliy aholining faolligi, xayriya tashabbuslari va jamoatchilikning bevosita ishtiroki bilan amalga oshgani jamiyatning madaniy merosga bo'lgan mas'uliyati ortganligini ko'rsatadi. Mustaqillikning ilk yillarida Buxoroga chet ellik delegatsiyalarning rasmiy tashriflari ko'paygani, tarixiy obidalar tashqi siyosiy aloqalar uchun muhim maydonga aylanganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, me'moriy obidalar davlatning milliy o'zligini tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va O'zbekistonning xalqaro imijini yaratishda muhim omil sifatida qaraldi. Bu jarayon keyingi yillarda turizmning rivojlanishi va madaniy merosni asrash siyosatining davom etishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Karimov I. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida // Buxoro haqiqati, 1992-yil 30-iyul, № 93.
2. Buxoroda ko'chma yig'ilish // Buxoro haqiqati, 1992-yil 29-sentabr, № 119.
3. Muhsinov. I. Urf-odatlar- Millat Mulki // Buxoro haqiqati, 1992-yil 29-dekabr, № 158.
4. BMT eksperti Buxoroda // Buxoro haqiqati, 1994-yil 13-iyul, № 56.
5. O'zA. Hindiston Tashqi ishlar vaziri Buxoroda // Buxoro haqiqati, 1992-yil 13-oktabr, № 125.
6. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zolning Buxoroga tashrifi // Buxoro haqiqati, 1993-yil 8-aprel, № 40.
7. Eron Islom Jumhuriyati Prezidenti Buxoroga tashrif buyurdi // Buxoro haqiqati, 1993-yil 21-oktabr, № 122.